



UDK: 811.82:45

Gulnora XOLMUROTOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD O'.Xudonazarova taqrizi asosida

INTERYER DIZAYN TERMINOLOGIYASIDA KONNOTATIV MA'NOLAR (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarining konnotativ qirralari lingvosemantik va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikki tilga oid atamalarining madaniy asoslari, estetik va psixologik xususiyatlari o'rganilib, ularning semantik va konnotativ tafovutlari yoritib berilgan. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar hamda konnotativ ma'no yo'qotilishi holatlari ochib berilgan. Maqolada interyer dizayn leksikasini konnotativ jihatdan o'rganishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Interyer dizayn, konnotativ ma'no, lingvomadaniy tafovut, estetik idrok, semantik siljish, ingliz va o'zbek tillari, dizayn terminologiyasi.

КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ В ТЕРМИНОЛОГИИ ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В данной статье проведён лингвoseмантический и лингвокультурный анализ коннотативных особенностей терминов интерьерного дизайна в английском и узбекском языках. В ходе исследования изучены культурные основы, эстетические и психологические характеристики терминов в обоих языках, выявлены их семантические и коннотативные различия. Также рассмотрены случаи семантических сдвигов и утраты коннотативного значения в процессе перевода. В статье представлены научно-методические рекомендации по изучению лексики интерьерного дизайна с учётом коннотативного аспекта.

Ключевые слова: Интерьерный дизайн, коннотативное значение, лингвокультурные различия, эстетическое восприятие, семантический сдвиг, английский и узбекский языки, терминология дизайна.

CONNOTATIVE MEANINGS IN INTERIOR DESIGN TERMINOLOGY (BASED ON EXAMPLES FROM ENGLISH AND UZBEK)

Annotation

This article presents a linguosemantic and linguocultural analysis of the connotative features of interior design terminology in English and Uzbek. The study explores the cultural foundations, as well as the aesthetic and psychological characteristics of terms in both languages, and identifies their semantic and connotative differences. It also examines cases of semantic shifts and the loss of connotative meaning in the process of translation. The article provides scientific and methodological recommendations for the connotative study of interior design vocabulary.

Key words: Interior design, connotative meaning, linguocultural differences, aesthetic perception, semantic shift, English and Uzbek languages, design terminology.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda terminlar baholovchi va emotsional konnotatsiyalari bilan o'rganilmoqda; ularning kasbiy muloqotdagi roli esa alohida tadqiqot obyektiga aylangan. "Konnotatsiya" tushunchasining lingvistik atamalar tizimiga kiritilishi, avvalo, L.Yelmslev va L.Blumfildning ilmiy qarashlari bilan bog'liq [3]. Konnotatsiyani talqin etishdagi ko'plab yondashuvlar ham aynan ularning nazariyalarga tayangan. Bu qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab, til hodisalarini tahlil qilish, mavjud bilimlarni qayta ko'rib chiqish va yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan konnotatsiya atamasining izohiga to'xtalish o'rinli. Ko'pgina izohli lug'atlarda konnotatsiya (lotincha connotatio — "birga belgilash") til birliklari yoki kategoriyalarining asosiy ma'nosiga qo'shilib keluvchi qo'shimcha ma'no sifatida ta'riflanadi. Bu tushuncha odatda birlikning semantik va uslubiy xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi [14].

Der Grosse Coron izohli lug'atida ham konnotatsiya tushunchasiga semantika doirasida alohida e'tibor qaratilgan. Lug'atda konnotatsiya so'zning asosiy (denotativ) ma'nosidan tashqari unga birikadigan assotsiativ, emotsional va baholoviy ma'nolar yig'indisi sifatida izohlanadi. Bu komponentlar til birliklarining ko'p qirrali semantik xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi [15].

Ayniqsa, san'at va dizayn terminlarining baholovchi, estetik va madaniy konnotatsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Interyer dizayn terminlari o'zbek va ingliz tillarida turli konnotativ ma'nolar orqali milliy-estetik qarashlarni ifodalaydi. Ularning tahlili semantik boylik va madaniy farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mashhur rus tilshunosi O.S. Axmanova lingvistik terminologiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning "Lingvistik atamalar lug'ati"da termin — muayyan tushunchalarni ifodalash yoki obyektlarni belgilash uchun yaratilgan maxsus til birligi [2] sifatida, terminologiya esa — ma'lum soha yoki

faoliyat yo'nalishiga oid terminlar tizimi [2] sifatida izohlangan. Terminologiya ongli ravishda tartibga solinishi va tizimlashtirilishi mumkin bo'lgan eng qulay lingvistik sohalaridan biri sanaladi.

Kasbiy faoliyatda terminologik bilimlarni egallashda maxsus tillarni o'rganish zarurdir. Bunday tillar ilm-fan va texnika sohalariga oid terminlarga asoslanadi. Ularni o'zlashtirish tilshunoslar uchun ilmiy, mutaxassislar uchun kasbiy savodxonlikning tarkibiy qismidir. Jarayonning nazariy asoslarini O.S. Axmanova, C. Condit, A.S. Grinev, V.M. Leychik, D.S. Lotte, A.V. Superanskaya, G.O. Vinokur kabi xorijiy hamda O.S. Axmedov, A.A. Ayakulov, A.Hojiyev, G.I. Ergashova, X.D. Paluanova kabi o'zbek tilshunoslarining ilmiy qarashlari belgilaydi. Me'morchilik va qurilish terminologiyasi tilshunoslikda o'rganilgan [5], biroq "Me'moriy muhit dizayni" yo'nalishining kasbiy leksikasi hali izchil tadqiq etilmagan. Hozircha faqat arxitektura va dizayn terminlariga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud. V.V. Semenova muhit dizayni terminlarini Moskva, Sankt- Peterburg va Rossiya Federatsiyasining normativ-huquqiy hujjatlari asosida solishtirib o'rgangan [11]. U terminologiyani tizimli tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi, chunki atamalarni aniqlashtirish va bir ma'noga keltirish dizayn mutaxassislari, ijro hokimiyati vakillari hamda talabalar uchun muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarining konnotativ ma'nolari va lingvosemantik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida, bir nechta tilshunoslik metodlarini uyg'unlashtirish orqali o'rganildi:

Kontrastiv tahlil (chog'ishtirma) ingliz va o'zbek interyer dizayn terminlaridagi madaniy-ta'sirli semantik tafovutlarni ko'rsatdi. Masalan, *privacy* ingliz tilida mustaqillikni, o'zbek tilida esa "xos joy" orqali odob-axloq tushunchasini bildiradi.

Deskriptiv-tahlil usuli yordamida terminlarning kontekstdagi qo'llanilishi va emotsional-stilistik xususiyatlari o'rganildi. Masalan, ingliz tilidagi *cozy* termini iliqlik va ruhiy osoyishtalikni ifodalasa, o'zbek tilidagi *shinam so'zi* bu ma'noni to'liq qamrab olmaydi.

Semantik tarmoq usuli terminlar orasidagi konnotativ yaqinlik va sinonimik munosabatlarni aniqlash hamda tizimli tasniflash imkonini berdi. Ingliz tilidagi *cozy*, *comfortable* va *homely* atamaları ruhiy qulaylik va xavfsizlik bilan bog'liq yagona semantik tarmoqqa birlashadi; ularning konnotativ farqlari esa emotsional boyitilganlik darajasi bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Konnotativ ma'no — so'zning asosiy (denotativ) ma'nosidan tashqari, kontekst, madaniy muhit, shaxsiy tajriba yoki jamiyat xotirasi asosida shakllangan emotsional va stilistik ma'nodir. O.N. Rakitina konnotatsiyani assotsiatsiyalarning madaniy va milliy xususiyati bilan bog'lab, uni amaliy, nazariy va madaniy tajribalar ta'sirida shakllanadigan emotsional-baholovchi va stilistik rangdorlik sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, bu rangdorlik nutq egasining voqelikka munosabatini ifodalaydi va umumqabul qilingan yoki okkazional shaklda namoyon bo'ladi [9]. N.F. Alefirenko esa konnotatsiyani til birliklariga xos ekspressiv rang sifatida baholaydi [1].

Biz tadqiqotimiz uchun konnotativ ma'noni quyidagi turlarga ajratdik:

- Emotsional konnotatsiya;
- Ekspressiv konnotatsiya;
- Madaniy konnotatsiya;
- Assotsiativ konnotatsiya;
- Estetik konnotatsiya.

1. Emotsional konnotatsiya. Bunday konnotatsiya terminning inson qalbida uyg'otadigan his-tuyg'ulari bilan bog'liq. Termin oddiy ma'nosidan tashqari, iliqlik, tinchlik yoki qulaylik kabi hissiy holatlarni anglatadi (*hearth*, *fireplace*,

nook, *sunroom*, *cozy corner*, *rustic beams*, *wainscoting*, *warm lighting*; *supa*, *ayvon*, *mehmonxona*, *qo'shko'prik*, *devoriy rasm*, *shamdon* va b.). Masalan: ingl.: *hearth* – texnik jihatdan o'choq bo'lishiga qaramay, u uy muhiti, oilaviy iliqlik va tinchlik timsoli sifatida talqin etiladi; o'zb.: *supa* – oddiy ochiq maydon emas, balki sokin dam olish joyi, yaqinlik va mehr muhitini eslatadi.

2. Ekspressiv konnotatsiya. Bu turdagi konnotatsiya terminning uslubiy ohangini bildiradi. U rasmiy, badiiy, og'zaki yoki xalqona ifodalanishi mumkin bo'lib, nutga emotsional kuch bag'ishlaydi (*shabby chic*, *bohemian style*, *rustic interior*, *glam interior*, *Art Deco*, *Scandinavian simplicity*, *eclectic style*, *maximalist décor*; *sharqona uslub*, *milliy bezakli dizayn*, *zamonaviy hasham uslub*, *ijodiy loft uslub* va b.). Masalan: ingl.: *opulent interior* – behad hashamatli, dabdabali interyer obrazini beradi. Ushbu termin hayrat yoki tanqid ohangini ifodalashi mumkin; o'zb.: hashamatli devoriy naqshlar – bunday ibora estetik boylik, ko'zga ko'rinarli dabdaba yoki ortiqcha bezakbozlik tusini oladi.

3. Madaniy konnotatsiya. Bu konnotatsiya turi termin orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy xotiralar bilan bog'liq ma'noni anglatadi. Har bir madaniyat bir xil terminni turlicha talqin qilishi mumkin (*ganch o'yma*, *do'ppi osgich*, *gilam*, *sandig'*, *ko'rpa-to'shak javoni*, *sandal*; *bay window*, *rocking chair*, *bunk beds*, *veranda*, *minimalism* va b.). Masalan: ingl.: *tea trolley* – Britancha choy marosimlariga oid mebel elementi; o'zb.: *ayvon* – arxitektura viy unsur bo'lishidan tashqari, u mehmondo'stlik, yozgi salqinlik va oilaviy yig'inlar bilan chambarchas bog'liq.

4. Assotsiativ konnotatsiya. Bu konnotatsiya terminni eshitgan yoki ko'rgan zahoti inson xotirasida uyg'onadigan tasvirlar, holatlar yoki shaxsiy tajribalar bilan bog'liq bo'ladi (*qandil*, *parda*, *xum*, *panjara*, *xontaxta*, *guldun*; *skylight*, *accent wall*, *armchair*, *rug*, *table lamp*, *lantern* va b.). Masalan: ingl.: *chandelier* – bu termin faqatgina lyustra yoki yoritgichni emas, balki zodagonlik, tantanavorlik, klassik davralarni ham yodga soladi; o'zb.: *tosh bezaklar* – bu elementlar tarixiy binolar, e'tibor bilan ishlangan milliy uslub yoki bolalikdagi masjidlar obrazini uyg'otadi.

5. Estetik konnotatsiya. Bu konnotatsiya orqali terminning go'zallik, nafislik va badiiy talqin darajasi yuzaga chiqadi. Bu ma'no dizaynning ko'rkamligi va did bilan bezalganligini ifodalaydi (*naqsh*, *shoyi parda*, *spool bezak*, *zardo'z yosti*; *ornamentation*, *marble countertop*, *wrought iron railing*, *mosaic tile*, *art deco mirror* va b.). Masalan: ingl.: *refined finish* – termin yuqori sifat, ishlovdagi aniqlik va zamonaviy estetik qarashlarni bildiradi; o'zb.: *ganch o'ymakorligi* – bu ibora milliy nafislik, mohirlik va san'at bilan uyg'unlikni ifodalovchi estetik timsollardan biridir.

Shu asosda aniqlanishicha, ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarining konnotativ qatlamlari lingvosemantik va madaniyatlararo tafakkurdagi farqlarni aks ettiradi:

Ingliz tilidagi terminlar ko'proq shaxsiy tajriba, individuallik, mustaqillik va zamonaviylikni ilgari suruvchi konnotatsiyalar bilan tavsiflanadi. Masalan, "*privacy*", "*cozy*", "*minimalist elegance*" kabi terminlar nafaqat fizik makon, balki psixologik qulaylik va estetik hushyorlikni ifodalaydi.

O'zbek tilidagi terminlar esa ko'proq jamoaviylik, mehmondo'stlik, urf-odat va tarixiy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liq konnotativ ma'nolarni anglatadi. "*Ayvon*", "*supa*", "*ganch o'yma*" kabi atamalar nafaqat dizayn elementi sifatida, balki milliy madaniyat va ijtimoiy xotiraning timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, interyer dizayn terminlarining konnotativ qatlamlari emotsional-estetik va

madaniy tasavvurlarni shakllantiradi, ularning mazmunini ochishda esa lingvomadaniy yondashuv muhim vositadir.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interyer dizayn terminlarining konnotativ qatlamlari semantik boylik bilan birga madaniy tafakkur, estetik did va psixologik tasavvurlarni ham aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi terminlar tahlili quyidagi xulosalarga asos bo'ldi:

interyer dizayn terminlari har bir tilning madaniy qadriyat va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, o'ziga xos assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi;

ingliz terminlari individuallik va zamonaviylikni, o'zbek terminlari esa jamoaviylik va madaniy merosni aks ettiradi;

tarjimada ayrim terminlar semantik siljishga uchrab, konnotatsiya yo'qoladi; bu lingvomadaniy tafovutlarni e'tiborga olishni talab etadi.

Ushbu tahlil natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Interyer dizayn terminologiyasini o'rganishda konnotativ ma'nolarni lingvomadaniy kontekstda tahlil qilish metodologiyasini keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tarjimashunoslik va dizayn sohalariga oid qo'llanmalarda konnotativ jihatdan murakkab atamalarining emotsional-estetik xususiyatlarini ochib beruvchi tushuntiruvlar keltirilishi, shuningdek, soha mutaxassislari va tarjimonlar uchun ularning denotativ va konnotativ ma'nolarini aks ettiruvchi ikkitillik interyer dizayn terminlari lug'ati tuzilishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. — М.: Гнозис, 2005. — 326 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Совет. энциклопедия, 1966. — 614 с.
3. Блумфилд Л. Язык / пер. с англ. Е.С. Кубрякова, В.П. Мурат. — М.: Прогресс, 1968. — 608 с.
4. Большой энциклопедический словарь. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Большая Российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1999. — 1456 с.
5. Гринев А.С. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии: на материале тематического поля «Теория и история архитектуры»: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 2004. — 21 с.
6. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка // Новое в лингвистике. — Вып. 1. — М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. — С. 264–389.
7. Жердев В.И. Понятия и термины в архитектуре: роль в развитии науки, образования и творчества (часть 1) // Академический вестник Урал НИИ проект РААСН. — 2014. — № 2. — С. 47–52.
8. Кузнецова Н.Г., Васильева С.Л., Зайцева И.Е. Типология наименований сельских поселений в английской, немецкой, французской и русской архитектурно-градостроительной терминологии: проблема межъязыковых соответствий терминологических единиц // Вестник Томского государственного университета. — 2018. — № 429. — С. 15–27.
9. Ракитина О.Н. Национально-культурная коннотация как семантическая категория (на материале русских и немецких слов, обозначающих участки рельефа в фольклорных текстах): дис. ... канд. филол. наук. — Воронеж, 2005. — 229 с.
10. Российский энциклопедический словарь: в 2 кн. / гл. ред. А.М. Прохоров. — М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. — Кн. 1: А–Н. — 1023 с.
11. Семенова В.В. Термины и определения «Дизайн среды». Теория и практика. — СПб.: Санкт-Петербургский государственный университет промышленных технологий и дизайна, 2016. — 487 с.
12. Советский энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. — 2-е изд. — М.: Сов. энциклопедия, 1983. — 1600 с.
13. Трофимова Н.А., Щитова О.Г. Иноязычные обозначения новейших строительных технологий в русском языке // Вестник Томского госулар. педагог. универ. (TSPU Bulletin). — 2020. — Вып. 2 (208). — С. 49–54.
14. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати / Масъул муҳ-р: А. Мадвалиев. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2002. — 168 б.
15. Der Grosse Coron. Band 10: Kast-Land / das moderne Nachschlagwerk in 20 Bänden / hrsg. u. bearb. von der Meyer-Lexikonredaktion des Vlg. Bibliographisches Institut & F.A. Brockhaus AG; Chefredaktion: Karl-Heinz Ahlheim, Dipl.-Phil. Gisela Pres; mit Sonderbeiträgen von Reinhard Schoeneberg und Heinz Zemanek. — Mannheim: Coron Verlag Lachen am Zuerichsee, 1988. — 496 S.
16. Saloydinova N.Sh. Arxitektura-qurilish terminlarining leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. b. fal. d-ri diss. avtoref. — T., 2023. — 56 b.
17. Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi (o'zbek, olmon, ingliz, rus tillari). — Namangan, 2013. — 130 b.